

## **KIMYO DARSLARINI ZAMONAVIY, INTERFAOL METODLAR, DIDAKTIK O‘YINLAR ASOSIDA TASHKILLASH UCHUN USLUBIY TAVSIYALAR**

*Qurolova Lola*

*Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani 26-umumiy o‘rta ta‘lim maktabning kimyo  
fani o‘qituvchisi*

**Annatatsiya:** Ushbu maqolada kimyo fani darslarini tashkil qilishda zamonaviy metodlar haqida uslubiy tavsiyalar beriladi.

**Kalit so‘zlar:** “Assesment” metodi, “SWOT-tahlil” metodi, “Keys-stady” metodi, “Kim ko‘p yozadi” metodi, “To‘g‘ri top usuli”.

Kimyo - "ximiya" – moddalarning tuzilishi va o‘rganishini o‘rganadigan fan. Kimyo boshqa fanlar qatori inson faoliyatining mahsuli sifatida vujudga kelib, tabiiy ehtiyojlarni qondirish, zaruriy mahsulotlar ishlab chiqarish, biridan ikkinchisini hosil qilish va nihoyat, turli hodisalar sirlarini bilish masadida ro‘yobga chiqdi. Odamlar qadimda rudalardan metallarni ajratib olish, turli xil qotishmalar tayyorlash va qo‘llash, jumladan shisha tayyorlash va undan turli maqsadlarda foydalanishni bilganlar.

Bugungi kunda kimyoni o‘qitishda zamonaviy ta‘limda eng ko‘p qo‘llaniladigan interfaol metodlardan - Assesment, SWOT-tahlil, Keys-stady kabi metodlardan foydalanish yaxshi samara bermoqda.

Assesment metodi Assesment inglizcha — “assessment” so‘zidan olingan bo‘lib, baho, baholash ma‘nolarini bildiradi. Assesment metodi talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta‘minlovchi topshiriqlar to‘plami bo‘lib, u biografik anketa, ta‘lim sohasidagi yutuqlar bayoni, o‘quv individual topshirig‘i, bahs- munozara, intervyu, ijodiy ish,

test, individual keys, taqdimot, ekspert kuzatishi, rolli hamda ishbilarmonlik o'yinlari kabilardan tashkil topadi.

SWOT-tahlil metodi Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. S-(strength)-kuchli tomonlari W-(weakness)-zaif, kuchsiz tomonlari O-(opportunity)- imkoniyatlari T-(threat)-to'siqlar va tahdidlar

S Fosforli o'g'itlarni qo'llashning afzallik tomonlari Fosforli o'g'itlar hosil ko'p bo'lishini ta'minlaydi W Fosforli o'g'itlarni qo'llashning kamchilik tomonlari Ko'p miqdori tuproq unumdorligiga ta'sir ko'rsatadi O Fosforli o'g'itlardan foydalanishning imkoniyatlari Fosforli o'g'itlardan unumli foydalanilganda yuqori hosildorlikka erishish imkoniyati ortadi T Fosforli o'g'itlardan foydalanishda to'siqlar va tahdidlar Tuproqning tarkibiga qarab fosforli o'g'itlar turlicha o'zlashtiriladi. Mevali daraxtlarga ta'siri yo'q — KEYS-STUDY texnologiyasi Keys-stadi inglizcha case – aniq vaziyat, hodisa, study- o'rganmoq, tahlil qilmoq, ta'lim so'zlarining birikuvidan hosil qilingan bo'lib, aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta'lim metodidir. Mazkur metod muammoli ta'lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakteriga ega bo'ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma'lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o'zida aks ettiradi. Bosma holatdagi keys (uni yanada ko'rgazmali bo'lishini ta'minlaydigan grafik, jadval, diagramma, illyustratsiyalarni ham o'z ichiga oladi). Multimedia-keys (so'nggi vaqtlarda keng qo'llashni talab etayotgan. Video keys (film, audio va video materiallardan iborat bo'lishi mumkin).

## **I. Didaktik o'yin texnologiyalari**

Didaktika yunoncha “**didaktikos**” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, oʻqitish, oʻrganish maʼnosini bildiradi. Oʻquvchilarga bilim berishda yangi inavatsion texnologiyalardan foydalanib darslarni olib borish yaxshi natija beradi.

Soʻngi paytlarda asosiy didaktik kategoriyalar sirasiga taʼlimning didaktik tizimi va taʼlim texnologiyasi kabi tushunchalarni ham kiritish taklifi ilgari surilmoqda.

Tadqiqotchilar mavjud didaktik konsepsiya (tizim)larni umumlashtirib quyidagi guruhlarga ajratdilar.

1. Anʼanaviy 2. Progressiv. 3. Zamonaviy.

Ushbu darslarda oʻquvchilarning bilim olish jarayoni oʻyin faoliyati orqali uygʻunlashtiriladi. Shu sababli oʻquvchilarning taʼlim olish faoliyati oʻyin faoliyati bilan uygʻunlashgan darslar, didaktik oʻyinli darslar deb ataladi. Inson hayotida oʻyin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi

- oʻyin faoliyati orqali shaxsning oʻqishga va mehnatga boʻlgan qiziqishi ortadi.
- oʻyin davomida shaxsning muloqatga kirishishi yaʼni komunativ – muloqat madaniyatini egallash uchun yordam beriladi.
- shaxsning oʻz iqtidori, qiziqishi, bilimi va oʻzligini namoyon etishiga imkon yaratiladi.
- hayotda va oʻyin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va moʻljalni toʻgʻri olish koʻnikmalarni tarkib topishiga yordam beradi.
- oʻyin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq – atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi.
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi.
- insoniyat uchun ahamiyatli boʻlgan qadriyatlar tizimi ayniqsa ijtimoiy, manaviy – madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni oʻrganishga etibor qaratiladi.

- o‘yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqat madaniyatini rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

Didaktik o‘yinlar texnologiyalari o‘quvchi faoliyatining faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o‘quvchiga ijobiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tatqiq qilish hisoblash, o‘lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash axloq – odob o‘rgatish, nutq o‘stirish til o‘rgatish, yangi bilimlar o‘rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bu o‘yinlar ishtirokchilarda aqliy – jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bularning orasida didaktik o‘yinlar ta’lim – tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini oshirib borishi bilan alohida o‘ringa ega.

Quyida kimyo darslarida didaktik o‘yinlar qo‘llash haqida fikr yuritamiz. **Ishchanlik o‘yin darsi** – dars mavzusi bo‘yicha masalalarni hal etish jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirok etishini ta’minlash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish mashqi.

Kimyoda “7-sinfda Suvning tarkibi va xossalari” mavzusida o‘quvchilarni 3 ta kichik guruhlariga bo‘lib har bir guruhga sovollar beriladi.

1. Suv qanday modda. 2. Suvdan qanday foydalanamiz. 3. suvning tarkibi qanday.

**Rolli o‘yin darsi** - dars mavzusi bo‘yicha masalalarni o‘rganishda o‘quvchilarga oldindan ma’lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi.

Masalan; 7-sinfda “Birikmalardagi elementlar atomlarining valentligi” mavzusida o‘quvchilarga element belgilari berilib ularni valetlik asosida birikishi ko‘rsatiladi.



**Teatrlashtirilgan dars** – dars mavzusi bilan bog‘liq sahna ko‘rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo‘yicha chuqur, aniq ma’lumotlar berish darsi.

8-sinf “Elektrolitlar va elektrolitmaslar” mavzusiga sahna ko‘rinishi tayyorlash mumkin

**Kompyuter darsi** – tegishli o‘quv fani bo‘yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimediya, virtual o‘quv kursi va shu kabilar) asosida o‘tiladigan dars.

**Kim oshdi savdosi darsi** – o‘quv fani ayrim bo‘limi bo‘yicha bilimlarni har bir o‘quvchi qanchalik ko‘p bilishini namoyish etish darsi. Bunda o‘quvchilarga sovellarni berib to‘g‘ri lavoblarni yutib olishini tashkil qilinadi.

**Yamarka darsi** – dars mavzusini bo‘laklar bo‘yicha oldindan o‘zlashtirish o‘quvchilarning o‘zaro muloqat asosida sinfga qiziqarli tushuntirish orqali o‘tiladigan dars.

**Formulalar darsi** – o‘quvchilarning formulalarni puxta o‘zlashtirishlari bo‘yicha turli o‘yinlar shaklidagi mashqlar o‘tkazish darsi. Bunda o‘quvchilarga reaksiya tenglamalari yozilgan varaqlar beriladi va ularga mos sherikni toppish aytiladi, natijada o‘quvchilarning bilimini tekshirish mumkin.

**O‘yin darsi** – dars mavzusiga mos o‘yin orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirishlarini tashkil etish darsi.

**Tergovchi bilimdonlar olib boradigan darsi** – dars mavzusini oldindan puxta o‘rgangan o‘quvchilar yordamida qiziqarli savol – javoblar, tahlillar asosida isbotlab, tushuntirish mashqlari bo‘lib, bunda o‘quvchilar dars mavzusini o‘zlashtirib eslab qolishlari uchun qulaylik yaratadilar.

“Tushunchalar tahlili” metodi. Bunda o‘qituvchi o‘tilgan mavzuni mustahkamlash va takrorlashga ma’lumotlarni aytib ketadi, O‘quvchilarga tushunchalar tushurilgan jadval tarqatiladi. Tushunchani izohlab, o‘quvchilar uning tahlilini yozishadi.

	Tushuncha	Tahlil
.	Kimyo	<a href="#">moddalarning</a> tuzilishi va o‘zgarishini o‘rganadigan fan
.	Kimyoviy reaksiya	bir <a href="#">kimyoviy moddalar</a> majmuining boshqa moddalarga aylanishi jarayonidir.
.	Oksidlar	tabiiy oksidlar (nordon) — elementlarning kislorod bilan tabiiy kimyoviy birikmalari, minerallar sinfi.

“Kim ko‘p yozadi” metodi. Metod tartibi: o‘quvchilar oldida faqat qog‘oz va qalam bo‘lishi kerak. Metodni «Aromatik aminlar», «Aminokislotalar», «Oqsillar» mavzusi bo‘yicha o‘tkazish ayniqsa yaxshi natija beradi. Bu o‘yin uchun ma’lum vaqt belgilanadi. Masalan, «Aminokislotalar» mavzusi e‘lon qilinadi deylik, o‘quvchilar esa belgilangan vaqt ichida o‘zlari bilgan barcha aminokislotalarni yozib chiqadilar. Yozilgan har bir aminokislota uchun bir ball beriladi. Ball sifatida rangli kartochkalar beriladi. Metodda eng ko‘p kartochka to‘plagan o‘quvchilarga o‘lib hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, kimyo fanini o‘rganish jarayonida noan’anaviy usullarni qo‘llash o‘quvchilarning ilm olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, ularning mustaqil fikrlashiga, o‘z nuqtai nazarini erkin bayon eta olishiga, darslik, qo‘shimcha ta’lim vositalaridan mustaqil bilim olishlariga yordam beradi. Bu o‘rinda fan o‘qituvchisining asosiy vazifasi o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olishi va to‘liq qondirishi, ta’limning tashkiliy shakllarini tanlashidir. Kimyo o‘qituvchisi sifatida chegra hudud maktablarida ishlab kelayotganimga ham mana 17 yil bo‘ldi. Bu muddat ichida harbiy turmush o‘rtog‘im bilan bir nechta maktablarda ishlab turli xil maktablarda ishlladim,

shunga yarasha tajriba orttirdim. Sizlar uchun ham ushbu uslubiy tavsiyalar orqali o‘z fikr-mulohazalarimni bayon qildim. Sizlarga manzur bo‘lsa, pedagogik faoliyatimdan juda xursand bo‘lar edim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Mavlyanov va boshqalar “Dars jarayonida interfaol usullardan foydalanish” Toshkent. 2018 y
2. Ganieva M.A., Fayzullaeva D.M. Keys-stadi o‘qitishning pedagogik texnologiyalari to‘plami / Met.qo‘ll.–T.:TDIU, 2013
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. – T.: —Iste‘dodll jamg\_\_armasi, 2008.
4. Minamatov, Y. E. O. G. L., & Nasirdinova, M. H. Q. (2022). APPLICATION OF ICT IN EDUCATION AND TEACHING TECHNOLOGIES. Scientific progress, 3(4), 738-740.
5. G‘ofurovich, T. X. A., & Esonali o‘g‘li, M. Y. (2022). Computer Using Dynamic System Modelling Environments. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 2(2), 9-13.